OSHQOZON SARATONI BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA REABILITATSIYA NATIJALARIGA IJTIMOIY VA TASHKILIY OMILLARNING TA’SIRI

Rizayev J.A., Asatulayev A.F.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Dolzarbligi. Onkologik bemorlarning reabilitatsiya natijalari faqat operatsiya hajmi, kasallik og‘irligi yoki qo‘llanilgan davolash usullariga bog‘liq emas. Bemorning yashash joyi, ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasadan uzoqligi, tibbiy nazoratdan muntazam o‘tish imkoniyati va reabilitatsiya xizmatlaridan foydalanish darajasi tiklanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, hududlar o‘rtasida tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari farqlanadigan sharoitda reabilitatsiyaning ijtimoiy va tashkiliy omillarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Oshqozon saratonidan keyingi reabilitatsiya samaradorligiga yashash hududi va ixtisoslashtirilgan onkologik markazdan uzoqlikning ta’sirini baholash.

Materiallar va usullar. Xirurgik davolashdan keyin reabilitatsiya kuzatuvida bo‘lgan 334 nafar bemorning ma’lumotlari tahlil qilindi. Bemorlarning yashash joyi, onkologik markazga yetib borish imkoniyati va reabilitatsiya natijalari o‘rganildi.

Samarali reabilitatsiya mezoni sifatida operatsiyadan keyingi oltinchi oyda ECOG 0–1 funksional holatiga erishish, umumiy salomatlik va hayot sifati ko‘rsatkichlarining operatsiyagacha bo‘lgan darajadan past bo‘lmasligi hamda tana vazni yo‘qotilishining 10,5% dan oshmasligi qabul qilindi.

Natijalar. Oltinchi oyga kelib 334 nafar bemorning 210 nafarida, ya’ni 62,9% holatda samarali reabilitatsiya mezonlariga erishildi.

Shaharda yashovchi bemorlarda samarali reabilitatsiya chastotasi 74,2% ni, qishloq hududlarida yashovchilarda 56,2% ni tashkil etdi. Onkologik markazga nisbatan qulay masofada yashovchi bemorlarda tiklanish samaradorligi 75,4% bo‘lgan bo‘lsa, markazdan uzoqda yashovchilarda 54,9% ni tashkil etdi.

Natijalar reabilitatsiya samaradorligiga tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan bog‘liq omillar ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ixtisoslashtirilgan markazlardan uzoqda yashovchi bemorlarda muntazam nazorat va reabilitatsiya tadbirlarining uzluksizligini ta’minlash alohida ahamiyatga ega.

Xulosa. Oshqozon saratonidan keyingi reabilitatsiya natijalarida hududiy va tashkiliy omillar muhim o‘rin tutadi. Qishloq hududlarida va onkologik markazlardan uzoqda yashovchi bemorlar uchun reabilitatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, mahalliy tibbiy muassasalar bilan uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va muntazam kuzatuvni ta’minlash funksional tiklanish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

© 2026 Worldly Knowledge.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.